URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLASHTIRISH: ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2026-yil 7-may
Urganch shahri

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLASHTIRISH: ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI»

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

«ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ОБРАЗОВАНИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ»

РЕСПУБЛИКА НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

Urganch - 2026

Berilgan indeks UO‘K 37:004.8(045)/ T30

MUNDARIJA

1-SHO‘BA MAKTABGACHA TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.	
Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘g‘li **PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISHDA STEAM TA’LIMNING O‘RNI**	12
Xo‘jamuratov Umarjon Rustamovich – **RAQAMLI TA’LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**	17
Sa’dullayev Ziyoddin Yovqochovich **OLIY TA’LIM MUASSASALARINING PEDAGOGIKA TA’LIM YO‘NALISHLARIDA INTERFAOL DARSLARDA TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI**	19
Xajiyeva Maqsuda Sultanovna **AQLLI TA’LIM: SUN’IY INTELLEKT ORQALI BILIM BERISHNING YANGI BOSQICHI**	26
Allanazarov Sirojbek Bekchan o‘g‘li **RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH STRATEGIYALARI**	29
Raximov G‘ayrat Buvaxanovich **RAQAMLI TA’LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**	**32**
Xajiyeva Dilfuza Adambayevna **IJTIMOIY MAS’ULIYAT TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA UNING PEDAGOGIK AHAMIYATI**	35
Atadjonova Dinora Ulug‘bekovna **TA’LIM JARAYONIDA O‘ZLASHTIRISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK MOHIYATI VA STRUKTURAVIY TAHLILI**	37
Karimova Shirinoy G‘ayrat qizi **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY VA AXLOQIY TARBIYALASHNING ZARURATI**	40
Sabirova Charosxon Atamamatovna **MA’NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURNI SANOGEN TARBIYALASHNING MILLIY VA UMUMINSONIY METODOLOGIK MANBALARI**	45
SH.K.ISMAILOVA **RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**	51
M.S.Salayeva **MAKTABGACHA TA’LIMDA SUN’IY INELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH DAVR TALABI**	54
Saporboyev Mirzabek, Jumaniyazov Javoxir **RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QUV JARAYONINI MONITORING VA BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**	59
Nuraddinova Raviyajan Sultanbayevna **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA MASHG‘ULOTLARNI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH USULLARI**	**65**

Yunusxo‘jayev M.Z. **NAJMIDDIN KUBRO TA’LIMOTIDA “KOMIL INSON” SHAXSINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**	489
Mustafo Yunusxo‘jayev Zafarxo‘ja o‘g‘li **NAJMIDDIN KUBRO TA’LIMOTIDAGI AXLOQIY VA MA’NAVIY YUKSALISH G‘OYALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI**	493
Allaberganova Marifat Kuranbayevna **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IMLOVIY SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA IJODIY YOZMA ISHLAR (HIKOYA, SHE’R, ERTAK)NING O‘RNI VA METODIKASI**	497
Xasanov Bobur Raximberganovich **O‘SMIRLARDAGI KOGNITIV SOHANING KASB TANLASH JARAYONLARIGA TA’SIRI**	501
Yakubova Shaxnoza Erkinbayevna **OLIY TA’LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH MASALALARI**	506
Якубова Диана Хайдаровна **ЦИФРОВИЗАЦИЯ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ В СТРАНАХ ТЮРКСКОГО МИРА**	509
ЯКУБОВА ДИАНА ХАЙДАРОВНА **МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**	513
Bobojanov Ilhom Abdulla o‘g‘li **REKREATSION TURIZM ASOSIDA TALABALARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA YO‘NALTIRILGAN KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**	517
Usmanova Xalima Muzaffarovna **INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OG‘ZAKI NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**	522
Yusupova Shoxida Xusainovna **TALABALARNING EMOTSIONAL -INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH.**	527
Masharibova Lobar Rayimberganovna **RAQAMLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEDIA SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**	530
Yakubova Shaxnoza Erkinbayevna **TALABA QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI**	533
Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li **TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.**	536
Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li **OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA TALABALARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI – FRANSIYA UNIVERSITETLARI MISOLIDA**	541

Pedagogika ta’lim yo‘nalishlarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi muammolar uchraydi:

- talabalarning ilmiy faoliyatga qiziqishi pastligi;
- amaliy tadqiqot ishlarining yetarli emasligi;
- raqamli resurslardan samarali foydalanish ko‘nikmasining kamligi;
- ilmiy rahbarlik tizimidagi kamchiliklar.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun:

- innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish;
- talabalarni ilmiy loyihalarga jalb qilish;
- xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;
- raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Oliy ta’lim muassasalarining pedagogika ta’lim yo‘nalishlarida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini sun’iy intelllekt orqali rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va innovatsion faoliyat yuritishida muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar va mustaqil ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb qilish, ularning ijodiy va analitik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

11. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
12. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
13. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2021.
14. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2020.
15. Zimnyaya I.A. Klyuchevые kompetensii kak rezultat sovremennogo obrazovaniya. – Moskva, 2019.
16. Xutorskoy A.V. Kompetentnostnыy podxod v obrazovanii. – Sankt-Peterburg, 2018.
17. Selevko G.K. Sovremennые obrazovatelnые texnologii. – Moskva, 2019.
18. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnые texnologii obucheniya. – Moskva, 2018.
19. Klarin M.V. Innovatsionnые modeli obucheniya. – Moskva, 2020.
20. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2021.

NAJMIDDIN KUBRO TA’LIMOTIDA “KOMIL INSON” SHAXSINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yunusxo‘jayev M.Z.

UrDU doktoranti

Annotatsiya. Maqolada kubroviya ta’limotida “komil inson” g‘oyasining tarbiyaviy mohiyati pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Najmiddin Kubro qarashlaridagi qalb pokligi, nafsni tarbiyalash, ilm-ma’rifatga intilish, murabbiylik va shaxs kamoloti masalalari zamonaviy tarbiya jarayoni bilan bog‘lab yoritiladi. Tadqiqotda tasavvufiy merosning axloqiy

tarbiya, ma’naviy yetuklik, ijtimoiy mas’uliyat va komil shaxsni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Najmiddin Kubro, kubroviya, komil inson, tarbiya, pedagogika, ma’naviy-axloqiy kamolot, tasavvuf, murabbiylik, ilm-ma’rifat.

Аннотация. В статье с педагогической точки зрения анализируется воспитательная сущность идеи «совершенного человека» в учении кубравии. Взгляды Наджмиддина Кубро на чистоту сердца, воспитание нафса, стремление к знанию и просвещению, наставничество и развитие личности рассматриваются во взаимосвязи с современным образовательным процессом. Раскрываются педагогические возможности суфийского наследия в формировании нравственного воспитания, духовной зрелости, социальной ответственности и гармонично развитой личности.

Ключевые слова: Наджмиддин Кубро, кубравия, совершенный человек, воспитание, педагогика, духовно-нравственное развитие, суфизм, наставничество, знание и просвещение.

Abstract. The article analyzes the educational essence of the idea of the “perfect human being” in the Kubrawiya teaching from a pedagogical perspective. Najmuddin Kubro’s views on purification of the heart, self-discipline, pursuit of knowledge, mentorship and personal development are interpreted in connection with the modern educational process. The paper reveals the pedagogical potential of Sufi heritage in moral education, spiritual maturity, social responsibility and the formation of a well-rounded personality.

Keywords: Najmuddin Kubro, Kubrawiya, perfect human being, education, pedagogy, spiritual and moral development, Sufism, mentorship, knowledge and enlightenment.

Kirish

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor vazifalaridan biri yosh avlodni intellektual salohiyatli, ma’naviy yetuk, axloqan barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazishdan iborat. Shu jihatdan xalqimizning boy ilmiy-ma’naviy merosida komil insonni tarbiyalashga doir qarashlarni pedagogik mezonlar asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tasavvuf ta’limoti, xususan, kubroviya tariqatida inson kamoloti, qalb tarbiyasi, nafsni jilovlash, ilm va ma’rifatga intilish masalalari tarbiyaviy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Tasavvuf ta’limotining yirik vakili, kubroviya tariqatining asoschisi Shayx Najmiddin Kubro ilm-fan, falsafa, axloq va ma’naviy tarbiya tarixida alohida o‘rin egallaydi. Uning ta’limotida insonni ichki poklanish, ma’rifat, sabr, iroda, mas’uliyat va ruhiy yetuklik orqali kamolga yetkazish g‘oyasi markaziy masala sifatida talqin qilinadi. Bugungi pedagogik amaliyotda ham shaxs tarbiyasida faqat bilim berish bilan cheklanmay, tarbiyalanuvchining qalbi, dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini uyg‘un rivojlantirish zarurati kuchaymoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Najmiddin Kubro ta’limotidagi “komil inson” konsepsiyasini pedagogik mazmunda tahlil qilish, uning axloqiy-ma’naviy tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ochib berish hamda tasavvufiy merosni zamonaviy tarbiya tamoyillari bilan bog‘liq holda izohlashdan iborat.

Asosiy qism

Kubroviya falsafasida inson va uning kamoloti eng muhim masalalardan biri sanaladi. Tasavvufda “komil inson” tushunchasi oddiy axloqiy yetuklik bilangina cheklanmaydi; u qalb va aql uyg‘unligiga, ruhiy poklikka, ma’rifatga, mas’uliyatli xulqqa va jamiyatga foydali bo‘lishga

intilgan shaxs qiyofasini ifodalaydi. Pedagogik talqinda bu g‘oya tarbiyalanuvchining bilimli, odobli, irodali, vatanparvar, adolatli va insonparvar bo‘lib shakllanishini nazarda tutadi.

Komil inson mavzusini maxsus o‘rgangan Abdulkarim Jiliy ushbu tushunchani borliq markazida turuvchi, ma’naviy yetuklikning eng oliy namunasi sifatida talqin qiladi. Uning izohlarida “komil inson” g‘oyasi “Haqiqati Muhammadiya” tushunchasi bilan bog‘lanib, insoniyat sharafini yuksaltiruvchi ruhiy-axloqiy mezon sifatida tushuntiriladi [1]. Bu qarash pedagogik jihatdan shuni anglatadiki, tarbiya jarayonida ideal shaxs namunasi, ya’ni ijobiy axloqiy modelning mavjudligi muhimdir. Chunki tarbiyalanuvchi o‘zida fazilatlarni shakllantirishda avvalo namuna, murabbiy va ma’naviy yo‘lboshchiga ehtiyoj sezadi.

Tasavvuf tarixida komil inson g‘oyasi payg‘ambarlar, valiylar, solih kishilar, oriflar va ilm-ma’rifat egalari timsolida namoyon bo‘ladi. Jiliy ta’kidlaganidek, insoniyatning sharaflanishi uning orasidan yetuk ma’naviy shaxslarning yetishib chiqishi bilan bog‘liqdir [1]. Pedagogik nuqtayi nazardan bu fikr “shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya” prinsipiga yaqin: har bir insonda kamolot imkoniyati mavjud, tarbiya esa ana shu imkoniyatni ro‘yobga chiqaruvchi ijtimoiy-ma’naviy jarayondir.

Tasavvuf ta’limotining shakllanishi haqida turli qarashlar mavjud. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tasavvufning dastlabki ko‘rinishlari jamiyatdagi zulm, adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlikka nisbatan ma’naviy norozilik ruhida ham shakllanganini qayd etadi [2]. Bu holat tasavvufning faqat diniy-ruhiy tajriba emas, balki axloqiy-ma’naviy isloh, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat bilan ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Pedagogikada esa bunday yondashuv tarbiyaning ijtimoiy vazifasini, ya’ni shaxsni jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglaydigan fuqaroga aylantirish zaruratini asoslaydi.

Tasavvuf Qur’oni karim va hadisi shariflar, sahobalar va salafi solihinlar hayoti, ilm-ma’rifat hamda amaliy axloqiy tajriba bilan boyigan. Uning mohiyatida ruhiy va ma’naviy poklanish, o‘z manfaatini xalq manfaati bilan uyg‘unlashtirish, insonlarga foyda yetkazish, halollik, kamtarlik, sabr va mehr-oqibat kabi fazilatlar turadi. Shu sababli tasavvufiy tarbiya zamonaviy pedagogikada “ma’naviy-axloqiy tarbiya”, “ijtimoiy-emotsional tarbiya” va “qadriyatlarga asoslangan ta’lim” bilan mazmunan tutashadi.

Muhammad Nurulloh Saydo al-Jazariy tasavvufni insonni komillikka yuksaltiruvchi, uni dunyo va oxirat saodatiga yetaklovchi ma’rifat ilmi sifatida izohlaydi [3]. Uning ta’kidicha, tasavvuf ahli Qur’on, hadis, fiqh, aqoid va tafsir kabi ilmlarni puxta egallagan, jamiyatga nafaqat so‘zlari, balki xulq-atvori va hayot tarzi bilan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu jihat pedagogik faoliyat uchun ham nihoyatda muhim: haqiqiy tarbiya faqat nasihat bilan emas, balki o‘qituvchi va murabbiyning shaxsiy namunasi orqali amalga oshadi.

Najmiddin Kubro ta’limotida qalb tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Qalbning tirikligi, uning ravshanligi va ezgulikka moyilligi insonning axloqiy qiyofasini belgilaydi. Agar nafs hukmronlikni qo‘lga olsa, qalb zaiflashadi, insonning xulqida xudbinlik, loqaydlik, manmanlik va mas’uliyatsizlik kuchayadi. Pedagogik jihatdan bu holat tarbiyada o‘zini nazorat qilish, iroda, intizom, mas’uliyat va ichki motivatsiyani shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Komil insonni tarbiyalashda ilm va ma’rifat asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Najmiddin Kubro va boshqa mutasavviflar shariat ilmlarini puxta egallashni tariqat va ma’rifat bosqichlariga yuksalishning zarur sharti deb bilganlar [3]. Bu fikr zamonaviy ta’limda ham dolzarb: ma’naviy tarbiya bilimdan ajralmasligi, bilim esa axloqiy mas’uliyat bilan mustahkamlanishi lozim. Aks holda bilim shaxs kamolotiga emas, balki faqat tashqi ko‘nikmaga aylanib qolishi mumkin.

Orif so‘fiylar tasavvufda faqat ruhiy tajriba egasi emas, balki donishmand, ilmu hikmat va fazilat sohibi sifatida talqin qilinadi. N. Komilov orifni ilohiy-irfoniy ilmlar egasi, qalbi ilm va hikmat manbai bo‘lgan shaxs sifatida izohlaydi [4]. Pedagogik talqinda orif obrazi murabbiy shaxsiga yaqin: u bilim beradi, tarbiyalaydi, yo‘l ko‘rsatadi, o‘z xulqi bilan ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va tarbiyalanuvchini ichki kamolotga undaydi.

Abdurahmon Jomiy ma’rifat bilan ilm o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’kidlab, ilmsiz ma’rifatning bo‘lishi mushkul, ma’rifatsiz ilm esa zarar keltirishi mumkinligini qayd etadi [5]. Bu fikr pedagogik jarayonda bilim, tarbiya va qadriyatlar birligini ta’minlash zarurligini asoslaydi. Ya’ni ta’lim mazmuni faqat ma’lumot yetkazishga emas, balki olingan bilimlarni ezgu maqsad, mas’uliyatli xatti-harakat va ijtimoiy foyda bilan bog‘lashga xizmat qilishi kerak.

Zunnun Misriy, Junayd Bag‘dodiy, Yusuf Hamadoniy, Abdulloh Ansoriy, Abu Said Abul Xayr, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xojagi Kosoniy va Muhammad Porso kabi mutasavviflarning merosi ilm, axloq, donishmandlik va murabbiylikning uzviy birligini ko‘rsatadi. Junayd Bag‘dodiy oriflik maqomining avvalini barcha ilm va ma’rifatni Allohdan deb bilishda ko‘radi. Shayx Tohir Abhariy esa “haqiqat” va “ilm” tushunchalarini bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qiladi [6]. Bu qarashlar pedagogikada bilimning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiradi.

Sufiylar botin ilmini ma’rifat, irfon, ilmi ladun, ilmi vahbiy, ilmi asror, ilmi farosat, ilmi mukoshafa kabi nomlar bilan ataganlar. Garchi bunday bilimlar zamonaviy ilmiy bilish mezonlaridan farq qilsa-da, ular insonning ichki dunyosi, axloqiy sezgirligi, vijdoniy mas’uliyati va ruhiy tarbiyasini izohlashda muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik nuqtayi nazardan bu meros tarbiyalanuvchining faqat tashqi intizomini emas, balki ichki ishonchi, maqsadi, qadriyati va o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmasini shakllantirishga e’tibor qaratadi.

Najmiddin Kubro ta’limotining tarbiyaviy mohiyati shundaki, u insonni bir vaqtning o‘zida bilimli, pokiza qalbli, irodali, kamtar, xalq manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘ya oladigan va ezgulikka xizmat qiladigan shaxs sifatida ko‘radi. Bunday yondashuv bugungi pedagogika uchun ham dolzarb, chunki zamonaviy ta’limning pirovard maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy yetuk, axloqan barqaror va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Pedagogik tahlil va amaliy ahamiyati

Najmiddin Kubro ta’limotidagi “komil inson” g‘oyasini pedagogik jarayonga tatbiq etishda bir necha muhim yo‘nalishlar ajralib turadi. Birinchidan, tarbiya jarayonida shaxsning ichki dunyosiga e’tibor kuchaytiriladi: qalb pokligi, vijdon, mas’uliyat, sabr, iroda va o‘zini nazorat qilish kabi sifatlar tarbiyaviy ishlarning markaziga qo‘yiladi. Ikkinchidan, murabbiy shaxsining namunaliligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki komil inson g‘oyasi avvalo ijobiy ideal va namuna orqali tarbiyalanadi.

Uchinchidan, tasavvufiy meros ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajratmaslikni taqozo etadi. Ilm-ma’rifat insonni kamolga yetkazishi uchun u axloqiy maqsad va ijtimoiy foyda bilan bog‘lanishi zarur. To‘rtinchidan, komil insonni tarbiyalashda shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalashi, o‘z xatti-harakatini tahlil qilishi va ma’naviy mas’uliyatni his etishi muhim o‘rin tutadi. Bu esa zamonaviy pedagogikada refleksiya, motivatsiya va shaxsiy rivojlanish kabi tushunchalar bilan uyg‘unlashadi.

Shunday qilib, Najmiddin Kubro ta’limoti pedagogik nuqtayi nazardan tarbiya mazmunini ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan boyitadi. Unda insonni faqat bilim egasi sifatida

emas, balki jamiyatga foydali, irodali, ma’rifatli va axloqiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirish g‘oyasi ilgari suriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Najmiddin Kubro ta’limotida “komil inson” shaxsini tarbiyalash masalasi chuqur ma’naviy-axloqiy va pedagogik mazmunga ega. Bu ta’limotda qalb pokligi, nafsni tarbiyalash, ilm-ma’rifat, murabbiylik, namunali xulq, ijtimoiy mas’uliyat va ezgulikka xizmat qilish komil shaxsni shakllantirishning asosiy omillari sifatida talqin qilinadi.

Maqoladagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kubroviya ta’limotining tarbiyaviy g‘oyalari bugungi pedagogika uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ular yoshlarni ma’naviy yetuklik, axloqiy barqarorlik, bilimga intilish, vijdoniy mas’uliyat va jamiyatga foydali bo‘lish ruhida tarbiyalashda samarali ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жилий Абдулкарим. Инсони комил. – Миср, 1390 ҳ.й., 2-жилд. – Б. 71–78.
2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент: “Ҳилол-нашр” нашриёти, 2022. – Б. 38.
3. Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо ал-Жазарий. Тасаввуф сирлари. – Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2000. – Б. 4.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: “Мовароуннаҳр” – “Ўзбекистон”, 2009. – Б. 278.
5. Абдураҳмон Жомий. Нафаҳат ул-унс мин ҳазаротул-қудс. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси, инв. № 4409. – Б. 6.
6. Абдураҳмон Жомий. Нафаҳат ул-унс мин ҳазаротул-қудс. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси, инв. № 4409. – Б. 130

NAJMIDDIN KUBRO TA’LIMOTIDAGI AXLOQIY VA MA’NAVIY YUKSALISH G‘OYALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Mustafo Yunusxo‘jayev Zfarxo‘ja o‘g‘li
UrDU doktoranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Najmiddin Kubro ta’limotidagi axloqiy va ma’naviy yuksalish g‘oyalari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada alloma merosida ifodalangan ustoz-shogird munosabati, nafs tarbiyasi, aqliy kamolot, vatanparvarlik, halollik, mas’uliyat va ma’naviy immunitet kabi tushunchalarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati ochib beriladi. Kubroviylik ta’limotidagi qalb, ruh, aql va nafs tarbiyasiga oid qarashlar zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan pedagogik qadriyatlar sifatida yoritiladi. Shuningdek, maqolada yoshlarni ommaviy madaniyatning salbiy ta’siridan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash, axloqiy mas’uliyat va milliy-ma’naviy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Najmiddin Kubro, Kubroviylik, pedagogik tarbiya, axloqiy tarbiya, ma’naviy yuksalish, nafs tarbiyasi, aqliy tarbiya, ustoz-shogird, ma’naviy immunitet.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются идеи нравственного и духовного возвышения в учении Наджмиддина Кубро с педагогической точки зрения. Особое внимание уделяется таким категориям, как наставничество, воспитание нафса, интеллектуальное развитие, патриотизм, честность, ответственность и духовный иммунитет молодежи. Идеи кубравийского учения о воспитании сердца, духа, разума и нафса раскрываются как